va aniq yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, noformal yozuv ijtimoiy interaktsiyani mustahkamlaydi: sleng, hashtaglar, emojilar va memlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro bog‘lanadi, umumiy submadaniyatni shakllantiradi va nutqning hissiy ohangini oshiradi. Yoshlar tilining innovatsion xususiyatlari ham normativ va noformal yozuvning integratsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar tez-tez yangi leksik birliklar, kod-aralashuv, qisqartmalar va multikodli elementlardan foydalanadi, bu esa onlayn nutqni dinamik, interaktiv va kreativ qiladi. Shu tarzda, yoshlar submadaniyati internet tilining rivojlanishiga va yangi kommunikativ normalarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Normativ va noformal yozuv shakllari ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro uyg‘unlashib, internet-muloqotning asosiy tendensiyalarini belgilaydi. Adabiy norma va noformal til o‘rtasidagi tafovut, noformal yozuvning kommunikativ afzalliklari va yoshlar tilining innovatsion xususiyatlari internet tilining tezkor, interaktiv va ekspressiv shakllanishini ta’minlaydi. Shu tariqa, foydalanuvchilar nafaqat samarali muloqot qiladi, balki tilning kreativ va zamonaviy evolyutsiyasini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayev Sh. Til va raqamli madaniyat. Toshkent, “Fan”, 2019.
(2). Karimova Z. Zamonaviy internet tilining lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent, O‘zMU nashriyoti, 2021.
(3). Kellner D., Share J. Critical Media Literacy. Routledge, 2019.
(4). Mardiyeva X. Ijtimoiy tarmoqlarda til registrlarining shakllanishi va funksiyalari. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Italiya, 2024.
(5). Rustamova M. Ijtimoiy tarmoqlarda norasmiy muloqot va uning tilga ta‘siri. Filologiya masalalari, 2020.
(6). Uralov A. Lingvomadaniyat va ijtimoiy tarmoqlar tili. Toshkent, Grand kondor print, 2026.

Xoliyorova Charosxon Davron qizi (Tadqiqotchi, O‘zbekiston Milliy universiteti; charosxondavronovna@gmail.com)

“PSIXOLINGVISTIKA”NING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada psixolingvistikaning rivojlanish bosqichlari va uning rivoji uchun hissa qo‘shgan ko‘plab olimlarning fikrlari keltirilgan. Psixolingvistika ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlangan. Uning tadqiqotlari orqali boshqa fanda ham izlanishlar olib borishi bu fikrning yorqin misolidir. Shuningdek, maqolada psixolingvistikaning bir nechta tamoyillari ham keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: psixolingvistika, tilshunoslik, nutq, til, ong, tushuncha.*

Холиёрова Чаросхон Даврон кызы (научный сотрудник Национального университета Узбекистана; charosxondavronovna@gmail.com)

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ КАК НАУКИ

Аннотация. *В данной статье представлены этапы развития психолингвистики и взгляды многих ученых, внесших вклад в ее развитие. Психолингвистика развивалась в тесной связи со многими дисциплинами. Ярким примером этой идеи является тот факт, что ее исследования привели к исследованиям в других дисциплинах. В статье также представлены несколько принципов психолингвистики.*

Ключевые слова: *психолингвистика, лингвистика, речь, язык, сознание, концепция.*

Kholiyorova Charoskhon Davron kizi (Researcher, National University of Uzbekistan; charosxondavronovna@gmail.com)

THE STAGES OF FORMATION OF PSYCHOLINGUISTICS AS A SCIENCE

Annotation. *This article presents the stages of development of psycholinguistics and the views of many scientists who contributed to its development. Psycholinguistics has developed in close connection with many disciplines. The fact that its research has led to research in other disciplines is vivid example of this idea. The article also presents several principles of psycholinguistics.*

Key words: *Psycholinguistics, linguistics, speech, language, consciousness, concept.*

Kirish. Til rivojlangani sari jamiyatda ham yuksalish bo‘laveradi va shuning uchun ham tilshunoslik sohasi har doim jamiyatning eng kerakli bo‘ginlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Bu sohaning ichida bir qancha sohalar rivojlangan bo‘lib, ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan psixolingvistika va uning rivojlanish tarixiga e’tiborimizni qaratamiz.

Til jonli nutq jarayoni hisoblanib, nutq so‘zlovchining kayfiyati, ruhiyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Insonning ruhiyati, ichki holatini o‘rganuvchi fan – psixologiya va tilshunoslik fani birgalikda psixolingvistika fani orqali o‘rganiladi va uning tarixi va uning rivojlanish bosqichlari ham o‘ziga xos jarayonni bosib o‘tgan. 1936-yilda psixolingvistika atamasi ilk bor Jako Robert Kantorning “Grammatikaning obyektiv psixologiyasi” deb nomlangan kitobida qo‘llanilgan [9]. Keyinchalik bu atama boshqa olimlar to-

monidan ham keltirib o‘tilgan. Xususan, 1946-yilda uning shogirdi, amerikalik psixolog Nikoloy Genri Prankoning tomonidan yozilgan “Til va Psixolingvistika: Sharh” deb nomlangan maqolasi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Jako Robert Kantorning Indiana universitetidagi hamkasblarining ham bu atamadan unumli foydalanishi yanada psixolingvistika atamasining keng qo‘llanila boshlashi uchun zamin yaratib bergan.

Psixolingvistikaning alohida fan sifatida e’lon qilinishida 1953-yilda AQSHning Blumington shaxridagi Indian universiteti tashkil etgan universitetlararo ilmiy seminar muhim ahamiyat kasb etdi. Seminarda universitet huzuridagi Lingvistika va Psixologiya qo‘mitasi tashkilotchi bo‘ldi va amerikalik mashxur psixologlar Charls Osgud, Djon Kerroll va tilshunos olim Tomas Sibeoklar faol ishtirok etdi. 1954-yilda esa “Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki” deb nomlangan to‘plam chop etildi. Unda ilmiy seminar jarayonidagi qabul qilingan psixolingvistikaning nazariy va amaliy muommo va masalalari va eksperimental tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilandi [4;25-b.]. Bu nazariy bilimlar fanlararo psixolingvistik eksperementlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Miloddan avvalgi 384–322-yillarda yashab ijod etgan Arestotelning ham psixolingvistika sohasiga doir mavzularda fikr yuritgani, bu fanning qadimda ham rivojlanish bosqichlari mavjud ekanligidan darak beradi. U nutq, tafakkur va mantiqiy fikrlash o‘rtasidagi o‘zoro bog‘liqliklar haqida salmoqli fikrlar keltirib o‘tgan. Uning ta’kidlashicha “so‘zlar tafakkurning belgisi hisoblanadi”. Keltirilgan bu fikrlar, keyinchalik, psixolingvistik qarashlarga asos bo‘lgan.

O‘rta asrlarda esa Abu Ali ibn Sinoning Psixolingvistikaning psixologik poydevori hisoblangan ma’lumotlari keltirib o‘tilgan. Olim ruhiyat, idrok, xotira va nutq jarayonlari haqida fikr yuritib, inson ongida so‘zning qanday shakllanishi haqida so‘z yuritgan.

Germaniyalik dunyodagi birinchi eksperemental psixologiya labaratoriya asoschisi, olim W.Wundt ham psixologiya nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, psixolingvistik nazariyalarni keltirib o‘tgan. U o‘zining “Physiological Psychology Principles” asarida ong, idrok, sezgi, his-tuyg‘u va iroda kabi jarayonlarni ilmiy yo‘l bilan o‘rganadi. Shuningdek, u nutqni psixologik jarayon sifatida o‘rganadi. Olimning yuqoridagi keltirilgan mavzular doirasidagi ilmiy izlanishlari bugungi kunda psixolingvistikaning yaratilishida poydevor sifatida xizmat qilib kelmoqda,

Bu fanning rivoji uchun yana ko‘plab olimlarning izlanishlari asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, nemis tilshunoslari V.Fon Gumbolt, A.Shleyxer va X.Shtayntal, rus polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene, shvetsariyalik tilshunos F.De Sossyur, rus va ukrain filologi va psixologi A.A.Potebnya, amerikalik tilshunos L.Blumfild va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari yangi soha – psixolingvistikaning yaratilishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Tilshunoslikdagi psixologizm oqimi tarafdorlari naturalizmni tanqid ostiga oladilar va ular tilning taraqqiyot bosqichini inson tafakkuri va uning ruhiy taraqqiyoti bilan bog‘liq degan g‘oyani ilgari suradilar. Aslida, tilshunoslikka psixologik muommolar logik va naturalistik g‘oyalar orqali kirib kelgan. Bunda esa V.Fon Gumboldning semantik qurilishda nutqiy ijodiy yondashuv xususidagi konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi.

Berlin universiteti professori bo‘lgan Geyman Shteyental V.Fon Gumboldning g‘oyalarini davomchisi hisoblanadi [8;364-b.]. Uning izlanishlarida til va psixologiyaning bog‘liqligi haqidagi ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Uning fikricha “Til–bu psixologik hodisa”. Ya’ni, til – bu grammatik qoidalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, balki inson ongining mahsulidir. Shuningdek, G. Shteyental “Tilni tushunish uchun inson ruhiy holatlarini o‘rganish zarur ekanligi va til qonunlari – psixologik qonunlar bilan bog‘liq ekanligini takidlagan. E’tiborli jihati shundaki, olimning bunday qiziqarli ilmiy faoliyati boshqa bir guruh olimlarning nazaridan chetda qolmadi. Xususan, Potebnya va Poul, B.De Kurtene, Sepir va Shcherbalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog‘liqligi ta’limotini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslarning o‘zi orqali psixolingvistika rivojlanib qolmagan. Uning rivoji uchun rus psixalogiya maktabi vakillari L.S.Vigotskiy (1956), A.A.Leontev (1977–1981) va A.R.Luriya (1959–1962–1975–1979) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillar ham asos bo‘lib xizmat qiladi. “Tafakkur va nutq mustaqil emas, balki rivojlanish jarayonida bir-biriga singib boradi”,deydi rus olimi L.S.Vigotskiy. Olim o‘zining ichki nutq nazariyasi orqali psixolingvistika uchun nutqni ishlab chiqish modelini ko‘rsatib bergan. Uning fikricha, tashqi nutq ichki nutqqa aylanadi, ichki nutq esa o‘z navbatida qisqa, Grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmaydi va ma’noga yo‘naltiriladi. Masalan: bola ovozini chiqarib: “Mashinani bu yerga qo‘yaman”, deydi. Keyin esa ichida “kubni…bu yerga”, deydi. E’tibor qilsak, nutq ichkilashuvi sodir bo‘lganda, bola grammatik qoidalarga bo‘ysunmadi va asosiy so‘zlardan foydalanib maqsadini ifodaladi. Shuningdek, L.S.Vigotskiy bugungi kundagi kognitiv psixologiyaning markaziy tamayillaridan biri hisoblangan “Nutq – fikrni shakllantiruvchi asosiy psixologik vosita”, degan fikrni ilgari surgan.

L.S.Vigotskiy maktabining davomchisi sifatida tanilgan A.N.Leontev faoliyat nazariyasining asoschisi hisoblanib, u nutqni faoliyat sifatida talqin qilgan. Uning fikricha "Nutq passiv jarayon emas, balki maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir". Olim nutqni 3 darajaga bo'ladi:

1. Faoliyat – motiv bilan bog'liq.
2. Harakat – maqsad bilan bog'liq.
3. Amal – sharoitga bogliq bo'ladi.

Yuqoridagi 3 ta daraja bugungi kundagi kommunikativ nazariyaga asos bo'ladi. Shuningdek, Leontev "Speech activity" tushunchasini ilmiy muomilaga kiritib, psixolingvistikaning yana bir tomonini ochib bergan.

XIX asrning birinchi yarmida va XX asrning boshlarida psixologik maktablar ham vujudga keldi. Ular til va nutq muommolariga bog'liq bo'lgan funksional belgilarni hamda, til qurilishi va nutqiy faoliyatni o'rganishgan. Bu maktab tarafdorlari asosiy e'tiborni tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, nutqiy jarayonga, so'z va jumlaning ma'nosiga qaratgan. Ular bu orqali asotsativ psixologiya tushunchalarini aniqlashni maqsad qilishgan. O'rganishlar natijasida esa psixolingvistikaning o'rganish obyektlariga quyidagilarni kiritishgan.

•Nutqiy faoliyatning vujudga kelish mexanizmi.
•Bolalar nutqini shakllanish jarayoni.
•Muayyan nutqiy vaziyatlarda so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar.
•Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshqalar [1;45-b.].

E'tiborlisi shundaki, bugungi kunda ham tilshunoslikning aynan yuqorida keltirilgan yo'nalishlari ilmiy izlanuvchilarni ko'proq qiziqtirib kelmoqda.

Taxlil va natijalar. Dastlab, psixolingvistik tadqiqqotlarning asosiy maqsadi matn semantikasini eksperimental o'rganishga, va matnni qabul qiluvchining matnni qay darajada semantik idrok etishini va matnning mazmunini shakllantirish va tuzilishini o'rganish edi. A.A.Leontevning tadqiqotlariga e'tibor qaratsak, matnning aloqa aktini ya'ni muloqot holatini biz obyektivlashtirgan holatda tushunamiz. Matnning tarkibiy qismlari esa aloqa predmeti, adresant va adresatlardan tashkil topadi. Bunday vaziyatda matn shakl sifatida va shu shaklda ifodalangan mantiq sifatida qaraladi. Psixolingvistika fani o'z navbatida tilning haqiqiy psixik muommosi, nutq madaniyati, nutq potologiyasi, fikr va nutq o'rtasidagi o'zoro munosabati va barcha nutq bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni o'rganishni o'z zimmasiga oladi.

Yana bir tilshunos olim Sharl Ballning izlanishlarida esa his hayajonga to'la nutq holatlarini o'rganishga katta ahamiyat berilgan. Olim tilda his-hayajonli vaziyatlarni vujudga kelishini ikki maqsadga bo'lib ko'rsatadi.

1. So'zlovchining his tuyg'usi va yetkazilayotgan ma'lumotga baho berish.
2. Muloqot ishtirokchilariga nutqiy ta'sir o'tkazish maqsadida lisoniy vositalardan unumli foydalanish [4;75-b.].

Ushbu ikki madsad bugungi kundagi muloqotimizni maqsadlarini ko'rsatib bera oladi. Ular hozirda psixolingvistika, pragmalingvistika va tilshunoslikning boshqa yo'nalishlarida bir qator muommolarni o'rganib chiqishda asosiy omillar safiga kiritiladi. Demak, olimning bu keltirib o'tgan fikr va mulohazalari o'rinli va diqqatga sazovar bo'lib qoladi.

Psixolingvistika tilning boshqa hususiyatlarini ham o'rganadi. Unda aynan til birliklaridan nutqiy faoliyatda foydalanish, ularni shaxsning xususiyatlari, ruhiyati va tafakkuri, xarakteri va kayfiyatini ham asosiy masala sifatida o'rganadi. Xulosa qiladigan bo'lsak til va uning elementlarisiz nutq yuzaga kelmaydi.

Psixolingvistikaning obyekti nutqiy hodisalar yoki nutqiy voqealarni o'zoro birlashuvidir. Psixolingvistikani o'rganishda nutqiy fanlarga bog'liq bo'lgan usullardan foydalaniladi. Ular, asosan, uchta guruhga bo'linadi.

1. Umumiy metodologiya.
2. Ilmiy metodologiya.
3. Maxsus tadqiqot metodlari [2;57-b.].

Umumiy metadalogiya falsafa hisoblanib, psixolingvistik fikrning ilmiy haqiqat yo'li tomon baholanishi falsafada kichadi. Ilmiy bilish jarayonida, har bir izlanuvchi u yoki bu konsepsiyani tanlaydi. Psixolingvistikada falsafiy yondoshuv, asosan, dialektik falsafa yo'nalishida olib boriladi. Shuni esda tutish kerakki, ba'zi holatlarda nutqiy faoliyat o'zgarib turuvchi ichki aloqalar bilan ham bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda, psixolingvistikaning bir nechta tamoyillarini ham o'rganib chiqamiz.

1. Nutqiy faoliyat va nutqsiz faoliyatning o'zoro bog'liqligi. Ushbu tamoyil insonning shaxs sifatida rivojlanishi bilan belgilanadi.

2. Nutqning funksional tizim sifatida tan olinishi. Ushbu tizim aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, lingvistikaning leksik, semantik jihatlarini umumlashtiradi. Ushbu tamoyilda faoliyatning ichki va tashqi shart-sharoitlariga bog‘langan holda olib boriladi.

3. Nutq faoliyatining to‘lqinligi bo‘lib, nutqiy jarayonlar va uni tavsiflovchi elementlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

4. Bu tamoyil esa o‘zida nutq semantikasini aks ettiradi. Bunday hollarda nutqdan til belgilari ajratib olinadi va nutq ma’nosini belgilab, shakllantirib uzatadi.

5. Nutqiy faoliyatning bevosita shaxs bilan bog‘liqligi. Bunda insonning dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligi uning nutqiy faoliyatiga ta’sir etishi bilan ajralib turadi [2;35-b.].

Yuqorida keltirilgan tamoyillar “Psixolingvistika” fanining bugungi kunga qadar fan sifatida rivojlanib kelishini ko‘rsatib beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, “Psixolingvistika” fani rivojlanib alohida bir soha sifatida shakllangunga qadar ko‘p davrlarni va fikr mulohazalarni o‘zida jamladi. Psixolingvistika sohasi yuksalgani sari, jamiyatda uning ahamiyati ham ko‘tarilib bormoqda. Muloqot jarayonida inson ruhiy kechinmalari va nutqiy faoliyatning bog‘liqligi psixolingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganilishi ham, olimlarning say harakatini qay darajada yuksak ekanligigni ochib bermoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, psixolingvistika barcha tilshunoslik ilmiga xos bo‘lgan bir nechta yangi sohalar kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, diskurs, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va boshqa sohalarga doir tadqiqot ishlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Karimov S.A. Nazariy tilshunoslik masalalari. Samarqand, 2012, 60–68-betlar.

[2]. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, 86–87-betlar.

[3]. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. d-ri... dis., Toshkent, O‘zR FA TAI, 2009, 49–70-betlar.

[–]. Osgood C.E. Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems. The Hague: Waverly Press, 1954, 212 p.

[5]. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). М.,Тривола, 2000, с. 8–13.

[6]. Глухов В.П., Ковшиков В.А. Психолингвистика: Теория речевой деятельности. М., АСТ, Астрель, 2007, с. 10.

[7]. Сорокин Ю.А. Текст: цельность, связность, эмотивность. Аспекты общей и частной теории текста. М., 1982, с. 61–73.

[8]. Steinthal, Heymann. Grammatik, Logik und Psychologie: ihre Prinzipien und ihre Verhältnisse zueinander. Berlin: Ferd. Dümmler’s Verlagsbuchhandlung, 1855, 364 s.

[9]. https://uz.wikipedia.org/wiki/Psixolingvistika